

## BO‘LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARDA KASBIY AMALIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH - PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Tuychiyeva Saodat Meliqo‘zievna

psixologiya fanlari nomzodi, dotsent. Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida kasbiy o‘z-o‘zini anglash, kasbiy kompetentlik, kasbiy qadriyat, pedagogik-psixologik kompetentsiya tushunchalari yoritib berilgan. Maqolada kasbiy kompetentlik, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ham pedagogik, ham psixologik muammo sifatida yondoshiladi.

*Kalit so‘zlar:* Kompetensiya, kasbiy o‘z-o‘zini anglash, professionallik, o‘z-o‘zini aktuallashtirish, kasbiy o‘z-o‘zini dinamikasi, psixologik-pedagogik kompetensiya.

## FORMATION OF PROFESSIONAL PRACTICAL SKILLS IN FUTURE EDUCATORS-PSYCHOLOGISTS - AS A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Saodat Melikozievna Tuychiyeva,

candidate of psychology, associate professor. Head of the «Psychology» department of Tashkent University of Applied Sciences

*Abstract.* This article describes the concepts of professional self-awareness, professional competence, professional value, pedagogical and psychological competence in higher education institutions. The article approaches the formation of professional competence and practical skills as both a pedagogical and a psychological problem.

*Key words:* Competence, professional self-awareness, professionalism, self-actualization, dynamics of professional growth, psychological-pedagogical competence.

## ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ-ПСИХОЛОГОВ - КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Туйчиева Саодат Меликозиевна

кандидат психологических наук, доцент. Заведующий кафедрой «Психология» Ташкентского университета прикладных наук

*Аннотация.* В данной статье раскрыты понятия профессионального самосознания, профессиональной компетентности, профессиональной ценности и педагогико-психологической компетентности в высших учебных заведениях. В статье, формирование профессиональной компетентности и практических навыков рассматривается как педагогическая и психологическая проблема.

*Ключевые слова:* Компетентность, профессиональное самосознание, профессионализм, самореализация, динамика профессионального роста, психолого-педагогическая компетентность.

Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan islohotlarning samarasi bevosita ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog‘liqdir. Kasbiy kompetentlik, kasbiy o‘z-o‘zini anglash, kasbiy qadriyatlarni hurmat qilish va kasb-hunarga yo‘naltirish - bu o‘z-o‘zini kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug‘ma layoqatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo‘ladigan umuminsoniy madaniyat komponentlaridan biri bo‘lgan umumlashtiruvchi tushunchalardir.

Bugungi kunda mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish- bu uning kunlik layoqatini, ish faoliyatini samaradorligini oshirishdan iborat. Bolajak kadrlarning psixologik-pedagogik kompetentligini oshirish zaruriyati ta’lim muassasasiga va pedagoglarga qo‘yilgan ijtimoiy talablarning o‘zishi bilan asoslanadi.

Pedagogik jarayonning ob’ektiv talablarini hisobga olgan holda muammolarni qo‘ya bilish, ularni echish, tarbiyalash va o‘quv jaryonlariga xos bo‘lgan qarama-qarshiliklarni echa bilish va ijodiy ishchanlikni qo‘llagan holda echimini topish – bularning hammasi birgalikda zamonaviy bolajak o‘qituvchi- pedagogning kasb faoliyatidagi o‘ziga xos tavsifini tashkil qiladi. Pedagogning kuchli bilim, kasbiy metodika va oddiy insoniy fazilatlaridan iborat uchta xususiyatni birlashtirib faoliyat yuritishi o‘qitish jarayonining pirovard natijasi va sifatini belgilaydi.

Rus olimi G.K.Mitrofanov o‘sha davr ta’lim mafkurasi tasavvufning asosiy tayanchi bo‘lgan so‘fiylik haqida to‘xtalib, so‘fiylikning o‘qitish va tarbiyalash jarayonidagi insonparvarlik an’analarini yoritgan. Bunday an’analar o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligiga xos so‘fiylik ta’limotida ifodalangan majburiyatlarida yaqqol ko‘rinadi. Ana shu majburiyatlarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi bolalarni yoqtirishi va ularga o‘zining farzandidek munosabatda bo‘lishi kerak. Shuningdek,

ularning zaif jihatlarini doimo tushunishi va ularni shu zaifligi uchun yanada ko'proq yoqtirishi lozim.

2. O'qituvchi o'zining ishi uchun haq ta'ma qilmasligi, inom olmasligi yoki minnatdorchilik kutmasligi kerak. U o'quvchidan uning o'qishni xohlashi uchun minnatdor bo'lishi zarur.

3. O'qituvchi hech qachon o'quvchiga maslahat berishdan bosh tortmasligi kerak. Olg'a siljishni o'quvchi emas, o'qituvchi baholaydi.

4. O'qituvchi o'quvchini yomon yo'ldan qaytarish uchun unga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki nimalargadir ishora qilib gapirishi lozim.

5. Ma'lum fanni o'rgatadigan o'qituvchi o'quvchilar oldida boshqa fanlar haqida nojo'ya gap aytmasligi kerak.

6. O'qituvchi nimani o'rgatsa, o'zi ham shunga amal qilishi shart. U birinchi galda o'qishning samarasini ifodalaydigan jonli timsoldir va hokazo.

Ushbu majburiyatlar o'qituvchi shaxsi va faoliyatining insonparvarlikka yo'nalganligini, shu xalqning ta'limiy qadriyatlarini, uning madaniyati va turmushini, bosh qadriyat sifatida insonning yuksalishini ta'minlaydi.

Kasbiy shakllanishda kasbiy sifatlar, kasbiy qadriyatlar va kasbiy taraqqiyot uzviy bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Kasbiy qadriyatlarning paydo bo'lishi, masalan, "Mening onam o'qituvchi", yoki "Mening otam ofitser" kabi ta'kidlar negizida va balki men ham onam kabi o'qituvchi, yoki otam kabi ofitser bo'larman, chunki men bu kasblarni hurmat qilaman va ota-onam kasbi bo'lganligi uchun qadrlayman, degan tushunchalar negizida kasbiy sifatlarning tarkib topishiga zamin yaratadi. Kasbiy qadriyatlar negizida kasbiy sifatlarning tarkib topishi kuzatiladiki, bu o'z o'rnida kasbiy taraqqiyotga yo'l ochib beradi.

Ko'plab tadqiqotlarda kasbiy sifatlar, qadriyatlar tizimli, dinamik va muvozanatli, inson kasbiy taraqqiyotining boshqa elementlari: kasbiy o'z-o'zini anglash, kasbiy o'z-o'zini baholash, kasbiy deformatsiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan voqelik sifatida ko'rib chiqiladi.

N.V.Kuzmina va uning shogirdlari ishlab chiqqan pedagogik qobiliyatlar konsepsiyasi pedagogik qobiliyatlar tizimining bir qadar to'la va mukammal talqini hisoblanadi. Muallif pedagogik faoliyatning sub'ektiv omillariga quyidagilarni kiritadi: 1) Shaxsning yo'nalganligi. 2) Qobiliyatlarining o'sish darajasi. 3) Kompetentligi (maxsus bilimlarga – pedagogika, metodika va psixologiya fanlarining turli sohalariga doir chuqur bilimga egaligi).

N.V.Kuzminaning fikricha, shaxsiy yo'nalganlik kasbiy-pedagogik faoliyatning yuqori cho'qqisiga erishish uchun eng muhim sub'ektiv omillardan hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning bosh strategiyasini tanlash muallifning asarlarida ko'rsatilishicha uch xil yo'nalishni:

1. Haqiqiy pedagogik.
2. Formal pedagogik.
3. Qalbaki pedagogik yo'nalishlarni qamrab oladi.

Faqat birinchi (haqiqiy pedagogik) yo'nalishgina pedagogik faoliyatda yuksak natijalarga erishishga imkon beradi. Haqiqiy pedagogik yo'nalish bu-o'qituvchining o'zi dars berayotgan predmet vositasida o'quvchi shaxsini shakllantirishga bo'lgan barqaror motivlar va undagi mavjud bilimlar, o'quvchi egallashi uchun zarur ehtiyojlarni shakllantirishdan iboratdir.

O'zbek psixologlari M.Davletshin, E.G'oziev, V.Karimova, SH.Barotov, B.Qodirov, N.Safoev, D.Muxamedova, S.Jalilova, A.Ubaydullaev, K.Qodirov, N.V.Groxolskaya, U.S.Jumaev, U.A.Qosimov, A.A..Beknazarov, L.A.Popova, M.Qoplonova, I.I.Maxmudov, E.A.Xidirov, N.G.Berdiev, M.M.Mavlonov, N.M.Majidov, A.M.Mashkurov, YU.M.Asadov, N.A.Ruziqulov N.H.Murotalieva, H.A.Rixsieva kabilarning ilmiy tadqiqotlarida kasbiy yo'nalganlik, kasbiy qobiliyatlar, kasbiy mas'uliyat va kasbiy sifatlar hamda kasb professiogrammalari muammolariga to'xtalib o'tilgan.

Psixologiya fanlari doktori, professor M.G. Davletshin fikricha, zamonaviy o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini uning kasbiy tayyorgarligi va mehnat faoliyati davomida uzluksiz rivojlanib, takomillashib boradi. U o'z shogirdlari bilan o'tkazgan tadqiqotlarda aynan pedagogning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy dinamikasi xususiyatlariga urg'u bergan va: 1) o'qituvchining shaxsiy xislatlari, 2) kasbiy bilimi, 3) kasbiy sifatleri, 4) shaxsiy pedagogik uddaburonligi, 5) tashkilotchilik malakalari, 6) kommunikativ malakalari, 7) gnostik malakalari, 8) ijodiy xislatlarni kasbiy shakllanganlikda muhim ekanligini ko'rsatib o'tishgan. Muvaffaqiyatli o'qituvchi bo'lish uchun nima kerak? degan savolga, o'qituvchi o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik qobiliyatlarning muhim komponentlari: 1) didaktik qobiliyat, 2) akademik qobiliyat, 3) perseptiv qobiliyat, 4) nutq qobiliyati, 5) tashkilotchilik qobiliyati, 6) avtoritar qobiliyat, 7) kommunikativ qobiliyat, 8) pedagogik ijodiy xayol, 9) diqqatni taqsimlay olish qobiliyatini egallagan bo'lishi shart degan fikr o'z ifodasini ham ilmiy tadqiqotlarda, ham o'quv qo'llanmalarda o'z aksini topadi. Bulardan tashqari olim o'qituvchining ezgu maqsad sari intilishi, mehnatsevarligi, qat'iyligi, kamtarligi, haqgo'yiligi, sadoqatli bo'lishi, namunali xulqi, yurish turishi, o'zini tuta bilishi, tashqi qiyofasi, xullas, uning milliy va umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keluvchi sifat hamda fazilatlarini egallashi uning o'z kasbiy faoliyatiga tayyorligi va o'quv-tarbiya jarayoni samarasini ta'minlovchi muhim omillar ekanligini e'tirof etadi.

Oxirgi yillarda pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion

texnologiyalarning ahamiyatiga alohida urg‘u berilmoqda. Psixologiya fanlari doktori D.Muxamedova tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda ta‘lim menejerini tayyorlash, ta‘limni boshqarishda innovatsiyalar masalasi ko‘tarilgan. Olima fikricha, zamonaviy ta‘limda pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish innovatsion texnologiyalarsiz va ularni qo‘llashga psixologik va pedagogik tayyorgarliksiz amalga oshirilishi mumkin emas. Shuni ta‘kidlash kerakki, zamonaviy ta‘limning samaradorligi ta‘lim beruvchiga, ta‘lim texnologiyalariga hamda ta‘lim muassasasi rahbarining psixologiyasi hamda ta‘lim muhitiga ham bog‘liqdir.

2023 yil Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev tomonidan “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” deb e‘lon qilindi. O‘qituvchi xalq, millat farzandlariga ta‘lim beruvchi, ularni tarbiyalaydigan shaxs. Uning komilligi xalq farzandlarining kelajagi omilidir. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarda pedagogning kasbiy tayyorgarligi, kopotentligiga doir masalalar ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, lekin oliy ta‘lim muassasalarida pedagogning kasbiy kompetensiyasi ustida uzluksiz va uzviy ish olib borish lozimligini ta‘kidlab o‘tamiz. O‘z ustida ishlamagan, o‘z-o‘zini aktuallashtirishga intilmagan, yangilik yaratmagan va novator bo‘lmagan pedagog zamonaviy pedagog degan nomga noloyiq bo‘ladi. Kelajakda oliy ta‘lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasi, ta‘lim sifati dinamikasini tadqiq etishga e‘tiborni qaratish, yangi ta‘lim texnologiyalari, maxsus kurslarni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir.

#### ADABIYOTLAR

Климов Е.А. Психология профессионализма: Избранные психологические труды / Е.А. Климов. – Воронеж: Изд-во инст. практ. псих., НПО МОДЕК, 2003.

Кузьмина, Н.В. Профессионализм педагогической деятельности / Н.В.

Кузьмина, А.М. Реан. – СПб, 1993. – 334с.

Митрофанов К. Г. Учительское ученичество. //Педагогика и психология /Подписная научно-популярная серия.-М.: 1991. №6,-80 с

Д. Мухамедова. Совершенствование психологических технологий развитие подготовки менеджера образования к инновационной деятельности./автореферат диссертации/-Т: 2015.

Abdivalievna, A. N. (2022). Special Psycho-Correction of Learning Processes in School Readiness in Children with Deficiency and Hyperactivity. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(2), 140-144.

Abdivalyevna, A. N. (2023). Psychoprophylaxis Of Depressive Situations In Crisis Situations. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 21, 1-4.